

## 2. Amaliy mashg'uloti

### EZILGAN OSILGAN TOMCHI FIKSIRLANGAN PREPARATLAR TAYYORLASH.

**Mashg'ulot maqsadi:** Ezilgan osilgan tomchi fiksirlangan preparatlar tayyorlashni o'rganish.

**Kerakli o'quv materiallari:** Mikroskop, o'rtasi chuqur buyum oynasi, qoplag'ich oyna, bakterial ilmoq, spirt alangasi, vazelin

#### Jarayon:

1. Mikroorganizmlardan osma va ezilgan tomchi preparat tayyorlab, ularni mikroskopda o'rganiladi. Osma tomchi preparat tayyorlash uchun o'rtasida chuqurchasi bo'lgan maxsus toza buyum oynasi olinib, chuqurcha chetlariga vazelin surtiladi.
2. Tozalangan qop-lag'ich oyna o'ng qo'lga olinadi va spirt alangasi ustidan 2-3 marta o'tkaziladi, ya'ni sterillanadi. Chap qo'lga bakteriologik ilmoqni olib, cho'g' bo'lguncha spirt alangasi ustiga tutib turiladi. Ilmoqni sovitib, u bilan tekshirilayotgan mikroorganizmlar suspenziyasidan bir tomchi olib qoplag'ich oyna ustiga tomiziladi.
3. Qoplag'ich oynadagi tekshirilayotgan material tomchisi buyum oynasi chuqurchasining markazida qoladigan qilib, ustiga buyum oynasi yopiladi. Buyum oynasi ohista siqib bosiladi va tezgina ag'dariladi. Preparat to'g'ri tayyorlangan bo'lsa, tomchi chuqurchada bemaol osilib turadi. Vazelin uni qurib qolishdan saqlaydi. Osma tomchi preparatdan mikroorganizmlarni tirik holida kuzatish uchun foydalaniladi.
4. Ezilgan tomchi preparatini tayyorlash uchun esa buyum oynachasiga bir tomchi suyuqlik tomiziladi. Suyuqlik quvur suvi (bakteriyalar bilan ishlanganda) yoki etil spirti va glitserinning bir xil hajmdagi aralashmasi (mikroskopik zamburug'lar bilan ishlanganda) bo'lishi mumkin.
5. Tomchi ustiga tekshirilishi kerak bo'lgan mikroorganizmlar kiritilib aralashtiriladi va qoplag'ich oynani sekingina tomchi ustiga qoplanadi. Qoplag'ich oyna atrofidan chiqqan ortiqcha suyuqlikni filtr qog'ozga shimdirib olinadi. Qattiq oziq muhitiga o'stirilgan bakteriyalarning tomchisini bakterial ilmoq yordamida, mikroskopik zamburug'larni bir-biriga bog'langan ikki igna yordamida, suyuq muhitda o'stirilgan mikroorganizmlarni esa tomizgich yordamida buyum oynasiga qo'yiladi.
6. Suyuq muhitdan olingan mikroorganizmlardan foydalanib preparat tayyorlanganida suyuqlik ishlatilmaydi. Suyuq muhitni quyidagicha tayyorlash mumkin:
7. 20-25 g quruq pichanni maydalab 200 ml suvga botiriladi va 30oC termostatda 2-3 kun saqlanadi.
8. Mikroorganizmlar neytral sharoit-da yaxshi rivojlanishini nazarda tutib, unga ozgina bo'r qo'shiladi.